

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 7 Jild 4
2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 7 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулв Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Abduxamidov Islombek

O‘ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT
MUHOJIRLIGI TARIXI 10-18

Фарманова Гульнара Комилевна

ПОДНЯТИЕ МЕТОДИКИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОБЩЕМИРОВОЙ
УРОВЕНЬ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ 19-24

Индиаминова Шоира Амриддиновна

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В САМАРКАНДСКОМ СОГДЕ В ЭПОХУ РАННЕГО
СРЕДНЕВЕКОВЬЯ 25-29

Mirzakhmdamova Dildora Zafarovna

XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA‘MINLASHDA FARG‘ONA VILOYATIDA
IPAKCHILK ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH 30-35

Ismoilova Parvina

TURKISTON MINTAQASIDAGI INSTITUTSIONAL O‘ZGARISHLAR: ROSSIYA KAPITALI UCHUN
KANALLARNING SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI - 20-ASR BOSHLARI) 36-41

Jomurodov Lazizbek Islomovich

O‘ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH
JARAYONI 42-46

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОЕ
РАЗВИТИЕ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ 47-54

Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna

VAGONLARDAN FOYDALANISHNING SIFAT KO‘RSATKICHINI OSHIRISHNI
TADQIQ QILISH 55-61

Mamadaliyev Ulug‘bek

JAHON TURIZMIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI 62-69

Jalilov Arslon Xoshimovich

ТЕМИР YO‘L TRANSPORTINING INNOVASION MUHITDAGI RAQOBATDOSHLIK DARAJASINI
BAHOLASH 70-75

Kamchibekov Farxod Olimjonovich

O‘ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS
IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI 76-82

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Djurayev Lukmon Narzullaevich

ZAMONAVIY O‘ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING
TRANSFORMATSIYALASHUVI 83-87

<i>Norkulov Ubaydulla Umarovich</i> MAHALLADA JINOYATLARNI ERTA ANIQLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI KUCHAYTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MEKANIZMLARI	88-92
<i>Пулатов Шердор Нематёнович</i> ДОКТРИНА ЛЮБВИ АЛИШЕРА НАВАИ И МАХАТМЫ ГАНДИ	93-105
<i>Yusupov Murodali Sunnatovich</i> O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TIZIMLARNI QO'LLASHNING IJTIMOIIY- FALSAFIY MASALALARI	106-110
<i>Suleymanov Sarvar Sunatullayevich</i> O'ZBEKISTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVIY TEXNOLOGIYALARNING IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI	111-116
<i>Shernazarov Ravshan Avazovich</i> SIYOSIY E'TIQOD: UNING TIZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI	117-122
<i>Nasrullayev Ravshanxon Sirojxonovich</i> VATANPARVARLIKNI IJTIMOIIY- MADANIY HODISA SIFATIDA AHAMIYATI.....	123-126
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Matkarimova Salomat Ko'ziyevna</i> ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK	127-133
<i>Tairova Maxfuza Abdusattorovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAMLAKATSHUNOSLIKKA DOIR RAMZIIY VOSITALARNING TARJIMADA QAYTA IFODALANISHI	134-139
<i>Rahimova Maftuna</i> LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA	140-143
<i>Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna</i> O'ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO'PLASH BORASIDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR	144-147
<i>Xursanov Nurislom Iskandarovich</i> O'ZBEK FRAZELOGIK BIRLIKLARINING PRAGMATIK TAHLILI	148-154
<i>Umarov Umidjon Akram o'g'li</i> RAMZ AXRETIPLARINING TASNIFLANISHI VA BADIY TAHLILI	155-159
<i>Облоқулова Шахло Асрор қизи</i> ЗАМОНАВИЙ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАОМ ДИСКУРСИ	160-164
<i>Nazarova Lola Maqsadilla qizi</i> KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI	165-170
<i>Umarxonova Dilafruz Murotjonovna</i> "MARDLIK" VA "QO'RQOQLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI	171-175
<i>Yunusova Ganjina Rustamovna</i> NAZMDA YO'L XRONOTOPINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI	176-180
<i>Мусаев Файзулло Оманович</i> АРАБ ДУНЁСИДА "МАСАЛ" ИЛМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖИ	181-186

<i>Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G'AZAB" ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LEKSIKOGRAFIK TAHLILI	187-192
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i> FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI	193-196
<i>Masharipova Nargiza Otaxonovna</i> TARIXIY-BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO'ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI	197-201
<i>Икромова Нугина Ойбековна</i> ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАГЛАВИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ	202-207
<i>Najmiddinova Mehriqul Najmiddin qizi</i> NEGATIVLIKNI IFODALOVCHI TEXNIKAGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	208-213
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> "NAZMUL JAVOHIR" ASARIDA G'OYAVIY BADIY POETIKA	214-221
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Саидов Ақром Акмалович</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ СИЁСАТИ ҲАМДА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	222-230
<i>Raimova Nargiza Doroyevna</i> TIJORAT MAXFIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	231-237
<i>Умурзақов Жасурбек Қосимжанович</i> КРИПТО-АКТИВЛАР НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	238-242
<i>Nurmatatova Noila Doniyorovna</i> KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO'RIB CHIQUISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	243-248
<i>Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o'g'li</i> FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANISH HUQUQINING XALQARO VA MINTAQAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI	249-260
<i>Адилбаев Бекбосын Абатбаевич</i> FUQAROLIK-HUQUQIY ВАКИЛЛИК ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	261-267
<i>Турсунбоев Сардор Муроджон ўғли</i> ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА ТЕРГОВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	268-275
<i>Mukumov Bobur</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASIDA TOVAR BELGILARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI	276-282
<i>Nabiev Firuz Xamidovich</i> INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY NORMLARNI O'ZBEKISTON	

RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISHDA “MOSLASHUVCHANLIK” KONTSEPTSIYASINING O'RNI	283-289
-----------------------------------------------------------------------------------------------------------	---------

Калимбетов Ерназар

ГРАЖДАНСКИЕ ПРАВА В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И СОДЕРЖАНИЕ В КОНТЕКСТЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ	290-297
--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	---------

Ibrohimov Azimjon Abdumot'min o'g'li

KORPORATSIYANI AMALDA BOSHQARUVCHI SHAHSLAR JAVOBGARLIGI	298-306
----------------------------------------------------------------	---------

Ходжаева Ширин

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРЕДДОГОВОРНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ	307-317
------------------------------------------------------------------------------------	---------

Маматкулов Камолiddин Галабаевич

ТАҚИҚЛАНГАН ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ИСБОТЛАНУВЧИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	318-323
-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	---------

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Nazarova Ra'no Sidiq qizi

HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO'LGAN BOLALARDA O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	324-329
-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	---------

Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHISI KASB STANDARTINING MAZMUN TAHLILI	330-341
------------------------------------------------------------------------------------	---------

Hamidova Laylo Kamildjonovna

OLIV PEDAGOGIK TA'LIMDA ARALASH O'QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	342-346
---------------------------------------------------------------------------------------------	---------

Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna, Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich

MAKTABDA KIMYOVIY MASALALARNI ECHISH BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI	347-357
-------------------------------------------------------------------------------------------------	---------

Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi

GLOBAL PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR KOMPETENSIYASIGA METODIK YONDASHUVLAR	358-363
----------------------------------------------------------------------------------------------------------	---------

Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o'g'li

INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGLIK KASBI TARBIYASINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA	364-369
------------------------------------------------------------------------------------------------	---------

Jalilov Umidjon Jahongirovich

OG'IR ATLETIKA MASHQLARINING AMALGA OSHIRISH USLUBIYATI	370-375
---------------------------------------------------------------	---------

Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi

OLIV TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	376-381
----------------------------------------------------------------------------------------	---------

Received: 30 June 2024
Accepted: 5 July 2024
Published: 15 July 2024

Article / Original Paper

PRAGMATIC ANALYSIS OF UZBEK PHRASEOLOGICAL UNITS

Khursanov Nurislom Iskandarovich

Doctor of philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Prof., Renaissance University of Education,

E-mail: nurislomkhursanov92@gmail.com

Abstract. Phraseology is a masterpiece of language. It reflects the peculiarities of the history, life and culture of the people. Bright national characteristics of the people are embodied in phraseology. Phraseologisms, in addition to having a deep and rich meaning, give the speech a special beauty, aesthetic content, which cannot be evaluated by the outdated view of the language as "decoration" or, on the contrary, "excess". First of all, they are always the "golden treasure" and "golden chest" of the people, the history, development path, cultural wealth, national traditions, ceremonies, religious views of that nation. liq also has an "accumulative" function that collects, stores, delivers all events. This article is about the study of phraseological units in Uzbek linguistics.

Key words: phraseology, language, history, phraseologism, cultural wealth, accumulative function

O'ZBEK FRAZELOGIK BIRLIKLARINING PRAGMATIK TAHLILI

Xursanov Nurislom Iskandarovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b., Renessans ta'lim universiteti

Annotatsiya. Frazeologiya – til durdonasidir. Bunda xalqning tarixi, turmushi va madaniyatining o'ziga xosliklari aks etadi. Frazeologizmlarda xalqning yorqin milliy xususiyatlari mujassam bo'ladi. Frazeologizmlar chuqur va boy ma'noga ega bo'lishi bilan bir qatorda nutqqa alohida ko'rk, estetik mazmun bag'ishlaydi, uni tilga "bezak" yoki, aksincha, "ortiqcha" deb eskirgan qarash bilan baho berib bo'lmaydi. Ular, eng avvalo, har qachon xalqning "oltin xazinasini", "oltin sandig'i" sifatida o'sha xalqning tarixi, taraqqiyot yo'li, madaniy boyliklari milliy an'analari, marosimlari, diniy qarashlari, o'sha xalq bilan bog'liq barcha voqealarni jamlovchi, saqlovchi, etkazib beruvchi, "akkumulyativ" funksiyaga ham egadir. Mazkur maqola o'zbek tilshunosligida frazeologik birliklar tadqiqi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, til, tarix, frazeologizm, madaniy boylik, akkumulyativ funksiya

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I7Y2024N23>

Kirish. Bilamizki, har qanday leksik birlik, shu jumladan, frazeologik birliklar ham yuqorida aytilgan xususiyatlar qatorida yana boshqa qator funksiyalarni ham bajaradi. Frazeologizmlarning paydo bo'lishi inson tafakkuri bilan tilning leksik imkoniyatlari o'rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy tilshunoslik tendensiyalari til birliklarining semantik-sintaktik xususiyatlaridan ko'ra pragmatik xususiyatlari, ya'ni ularning kishilar nutqida qo'llanish jarayonidagi muammolar ko'proq tadqiqqa tortilayotgan bugungi kunda frazeologik birliklarning ham pragmatik xususiyatlarini tadqiq qilish, foydalanuvchi omilini birinchi planga

olib chiqishga e'tibor qaratish mazkur dissertatsiyamizda belgilab olgan maqsadlarga erishishimiz uchun xizmat qiladi.

Bevosita frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlariga o'tishdan oldin pragmatikaning tilshunoslikdagi tadqiqotimizga aloqador ayrim xususiyatlariga to'xtalib o'tsak. Malumki, bugungi kunda pragmatikaga til vakillarining muayyan so'zlar va semantik konstruksiyalar orqali o'z munosabatini ifodalash va suhbatdoshining maqsadi (intensiyasi)ni tushunish darajasi, nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, munosabat bildirish sifatida qaraladi.

Adabiyotlar sharhi. 1930-yilda "pragmatika" (*pragma* – yunoncha "harakat") atamasi ilk marotaba semiologiya-semiotika (belgilar haqidagi fan)ning bo'limi sifatida qo'llanildi. Rodolf Karnap [2, 185 b.] va Charlz Morris [5, 165 b.] kabi olimlar pragmatika amaliyotining ushbu birinchi bosqichining yorqin namoyandalaridandir [2, 185 b.]. Pragmatika semiotikaning muayyan nutq jarayonida belgilar va ular ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi bir bo'limidir. Pragmatik jihatlar va belgilar tizimini tushunib etishdagi muammolar echimi falsafiy pragmatizm oqimi asoschilari bo'lgan amerikalik va evropalik olimlar Ch.Morris [5, 165 b.], Ch.Pirs, R.Karnap, Ch.Morris, L.Vitgenshteyn nomlari bilan bog'liq. Ikkinchi bosqich 1950–1960 yillarni o'z ichiga oladi va uning vakillari Jon Lengshou Austin, Jon Rojers Serl va Paul Gris kabi faylasuflar bo'lsa, uchinchi bosqichda Yakob L. Mey [15], S.Levinson [4, 192 b.], J.Lich [3, 150 b.] kabi olimlar ushbu sohada katta yutuqlarga erishdi [1, 85 b.; 12, 213-223 b.; 15; 18, 242–263 b.].

J.Layons pragmatikaning predmetini aniqlash va belgilashga urinib, shunday deydi: "Pragmatika tinglovchining ma'lumotni so'zlovchini xohlagan qabul qilishga undash uchun muloqotda tegishli til birliklaridan foydalanishini tavsiflaydi" [7, 8 b.]. Frazeologik birliklarning boshqa leksik birliklardan farqli ravishda obrazli ifoda imkoniyatiga ega ekanligi va nutq jarayoniga so'zlovchining maqsad bilan olib kirishi diskurs vaziyatida pragmatik xususiyatning namoyon qiladi. Quyidagi parchada berilgan misollarga qaraymiz.

Qalandarov Nosirovning kabinetidan rangi bo'zarib chiqqani, Saidaga dabdurustdan: "Mo'rtgina narsa ekansiz, qiynalib qolmasmikinsiz" degani, undan javob ham kutmay Nazarov bilan chiqib ketgani, demak, raykomning tavsiyasidan norozi ekanini hatto yashirishni ham lozim ko'rmagani Saidaning ko'ngliga g'ashlik solib qo'ydi [9, 15 b.]. Bunda yozuvchi nutq vaziyatini o'quvchi ko'z oldiga keltirish uchun *rangi bo'zarib chiqmoq, ko'ngliga g'ashlik solmoq* frazeologik birliklaridan foydalanadi va nutqning umumiy maqsadini o'quvchiga anglatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Metodologik jihatdan maqola pragmatik nazariyaga tayanadi, ya'ni frazeologik birliklarning ma'nosi va kontekstual foydalanish usullarini tahlil qilishga yo'naltirilgan. Kontekstual, deskriptiv va semantik tahlillar yordamida frazeologik birliklar qanday vaziyatlarda va qanday maqsadlarda ishlatilishi o'rganiladi. Shuningdek, frazeologik birliklarning kommunikativ funksiyalari ham o'rganiladi.

Ushbu metodlar yordamida maqolada o'zbek frazeologik birliklari keng qamrovli va chuqur o'rganilib, ularning pragmatik jihatlari aniqlandi. Maqola frazeologik birliklarning tilimizdagi ahamiyatini va ularning muloqotdagi rolini ochib beradi.

Tahlil va sharhlar. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, har qanday san'at asari qatorida tilning mo'jizakor semiotik o'ziga xosligi, olamning tabiiy manzarasini, insoniyatning his-tuyg'ularini, tabiiy borliqqa bo'lgan munosabatini ifodalashdagi, to'plash va saralashdagi "xizmati" benazirdir. Bular nafaqat badiiy adabiyotda – poeziya va prozada o'zining sehrli,

“ilohiy” tushunchalarini voqelantiradi, balki xalq tomonidan yaratilgan frazeologik birliklarda o‘zining nasihatomuzligi, tarbiya o‘chog‘i sifatidagi bor bo‘y-basti bilan namoyon bo‘ladi. Borliqni til orqali idrok etish, olamning lisoniy manzarasini ifodalashda insonning umumiy va milliy-madaniy xususiyatlar orasidagi munosabatini aniqlash talab etiladi.

Til dunyosini idrok etishning umuminsoniy qonuniyatlar asosida voqelanishini alohida ta’kidlash lozim. Chunki, insonning mantiqiy tafakkur qobiliyati ular er yuzining qaysi burchagida bo‘lishidan qat’i nazar, umumiylikka egadir. Agarda ushbu umumiylik mavjud bo‘lmasa, turli qit’alarda yashovchi, turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlar bir-birini tushunmagan, anglamagan, o‘zaro muloqotga kirisholmagan bo‘lar edilar. Buning yorqin isboti sifatida tillarda mavjud bo‘lgan to‘liq ekvivalent leksik birliklar qatorida frazeologik birliklar ham shaklan, ham mazmunan bir xilda mavjudligidir. Masalan, insonning qayg‘uli yoki xafa holati yoki qo‘rquv va hayajonini ifodalovchi assotsiativ semiotik belgilar ko‘p tillarda yurak semasi bilan bog‘lanadi. O‘zbek tilida *yuragi yorilmoq, yuragi shuv etmoq, yuragi yo‘q, yuragi orqasiga tortmoq, yuragi po‘killamoq, yuragi taka-puka bo‘lmok, yuragi chiqmoq, yuragi qinidan chiqmoq, (birovga) yuragini yozmoq, yurak oldirmoq, yuragini hovuchlab, yuragini changallamoq* kabi frazeologizmlarda aynan shunday lingvopragmatik mazmun ifodalanadi. Keltirilgan har bir frazeologik birlik so‘zlovchining nazarda tutgan fikr ifodasini diskursiv vaziyatga mos uslub va emotsional darajada etkazish uchun xizmat qiladi.

Frazeologik birliklar emotsional-baholash bo‘yoqdorligi tilning semantik maydonida alohida o‘rin tutadi. Aynan frazeologik birliklarning ushbu xususiyati har qanday tilning yorqin ifoda birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Odatda frazeologik ma’no tarkibida ijobiy, salbiy yoki neytral holatlar sezilib, ajralib turadi, ular zamirida mulohaza, ma’qullash yoki inkor etish va ba’zi ijtimoiy holatlar to‘g‘risida fikr yuritish, baholash yotadi.

Masalan, o‘zbek tilida “*ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq*” (o‘z fikrining amalga oshishini qaysarlik bilan talab qilib turib olmoq), *oyog‘ini tirab turib olmoq, to‘nini teskari kiyib olmoq* va boshqalar. E’tibor bering: *er yorilsayu, erga kirib ketsa, o‘tqizgani joy topolmaydi, do‘ppisi tor keldi, do‘ppisi yarimta* kabi frazemalar bunga misol bo‘la oladi.

Tadqiqot jarayonida frazeologik birliklarning shakllanishida, asosan, semantik va semiotik manbalarning muhim ahamiyat kasb etishi ma’lum bo‘ldi. Semiotik kodlanish jarayonida simvolik (ramziy) tamoyillar muhim ro‘l o‘ynaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi “*chap tomoni bilan turmoq*”, ya’ni sababsiz yomon kayfiyatda bo‘lmoq yoki “otning qashqasi” – mashhur (salbiy ma’noda) iboralardagi frazeologik ma’nolarning shakllanishiga e’tibor beramiz.

Semiotik tamoyillar asosida yuzaga kelgan iboralarda simvolik – ramziy bog‘lanish mavjud emas. Bunday holatda ibora o‘z mazmun-mohiyatiga, o‘z pragmatikasi va o‘z konnotativ tizimiga ega bo‘ladi. Bu erda ko‘proq mifologik tasavvurlar asosida yuzaga kelgan tarixiy til tushunchalari namoyon bo‘ladi. Masalan, *ruhi ko‘tarildi, ruhi tushdi, ko‘ngli cho‘kdi* kabi. Muloqot ishtirokchilari frazeologizmning manosini anglash uchun pragmatik tafakkur, kognitiv anglash hamda muayyan fon bilimlari talab etiladi.

Kechagina eshagiga qiyshiq mingan qishloqi edim, bugun esa ajabtovur mashina o‘rindig‘ida yastanib o‘tiribman-a?! Nahotki, Xizr ko‘rganim chin?!

El-ulus Chorshanbi cho‘ponning kenjasi Xizr ko‘rgan, endi iqboli baland bo‘ladi degan gap-so‘z tarqatibdi.

Xizr ko‘rdik, — dedim men unga peshvoz turib [14].

Ushbu misollarda berilgan hazrati Xizr payg‘ambarimiz bilan bog‘liq mazmunni anglash va anglatish jarayonida leksik-semantik tafakkurning o‘zi kamlik qiladi. Frazeologik birlik muloqotdagi ifoda maqsadining anglash uchun adresant va adresatdan Xizr alayhissalomga oid pragmatik bilimlardan ham xabardor bo‘lishi kerakligini talab qiladi.

So‘nggi yillarda frazeologizmlarning turli kommunikativ sharoitlarda ishlashi bilan bog‘liq masalalarga qiziqish yanada kuchaydi. Bu o‘rinda frazeologizmlar yordamida nutq faoliyatini o‘rganishga qaratilgan frazeologiyaning kommunikativ-pragmatik jihatlarini o‘rganish alohida o‘rin tutadi. Nutq faoliyati voqeliklardan biri sifatida qarala boshlandi. “Til nafaqat dunyoning manzarasini chizadi, balki til va nutq voqelikdagi ko‘plab hodisalarni tushunish kalitini ham beradi” [10, 504 b.]. Munosabatlarning bu yo‘nalishi pragmatik tadqiqotlar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Frazeologizmlarning kommunikativ va pragmatik xususiyatlaridan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, ularning asosiy pragmatik parametrlari ekspressivlik, konseptuallik va subtekst (yashirin) ma‘lumotlardir. Har bir frazeologizm ma‘lum kommunikativ vazifani bajaradi.

A.M.Yaxina pragmatik aspektdagi tahlil jarayonida frazeologizmlarning turli ma‘nolarini ajratadi. Jumladan, baholash, his-tuyg‘u jarayonini ifodalovchi, ya‘ni ekspressiv. Frazeologizmlar konnotatsiyalari doirasida ekspressivlikning ifodalanishida olima quyidagi guruhlarni ajratib chiqadi: muloqotda qatnashuvchilarning ijtimoiy mavqei; tinglovchiga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish; so‘zlovchilarning emotsional holati; kommunikativ-pragmatik vaziyatlarning namoyon etilishi [19, 221 b.]. A.M.Yaxina frazeologizmlarning pragmatik aspektlarini ularning semantik jihatlarini ta‘riflaganda tahlil qiladi.

O‘zbek adabiyotida A.Qahhor, A.Qodiriy, Cho‘lpon, Oybek, G‘afur G‘ulom, P.Qodirov, O.Yoqubov, O‘.Hoshimov, Said Ahmad kabi atoqli yozuvchilar yaratgan asarlarda o‘zbek xalqi ma‘naviyatini, madaniyatini, milliy mentalitetini yorqin namoyon etadigan milliy obrazlar mavjud. Quyida ularning asarlaridagi bazi frazeologizmlarning pragmatik tahliliga to‘xtalamiz.

Ma‘lumki, o‘zbek tilida “ko‘z” komponentli frazeologizmlar soni talaygina. Ushbu komponentli frazeologizmlar badiiy matnda ham ko‘p qo‘llangan. SHu o‘rinda G‘.G‘ulomning “Shum bola” asarini tahlil qilish orqali yuqoridagi fikrlarimizni asoslab o‘tamiz. Ushbu qissada “ko‘z” komponentli juda ko‘p iboralar qo‘llangan. Jumladan, *ko‘z tikmoq, ko‘ziga issiq ko‘rinmoq, ko‘zi to‘ymaydi, ko‘zi tor, ko‘zi yoridi, ko‘zini moshdek ochmoq, ko‘zlari uchib turmagan, ko‘ziga qon to‘lgan, og‘zimdanda tushmaydi*.

“Shum bola” asari tarkibidagi somatik frazeologizmlar ishtirok etgan quyidagi misralar tahlilida buni yana ham aniqroq ko‘rishimiz mumkin: *Hamyonni, pulni, uzukni menga olib berdilar. Lekin bir yarim tanga cho‘tal olib qoldilar. Shunday qilib, o‘rtoqlarim bilan qilingan garovni yutdim*.

– *Iye, sho‘rlik begunoh kosib yigit qulog‘ini ushlab ketaverdimi?– dedim.*

– *Yo‘q, birpas qamalib yotdi, keyin bechoraga rahmim kelib, mirshabga bir so‘m pora berib, yigitni qutqazib yubordim, da‘vom yo‘q, dedim. Yigit bechora xursand bo‘lganidan bo‘ynimdan quchoqlab o‘pib... [11, 92 b.].*

O‘zbek tilida *qulog‘ini ushlab ketmoq* frazeologik birligi “*hech narsasiz qolmoq, haqsiz qolmoq*” ma‘nosida o‘zbek xalqi tomonidan aynan shu mazmunni ifodalash uchun ishlatilgan. Ushbu asarning keyingi qismlarida yozuvchi tomonidan *ikki barmog‘ini burniga tiqib bormoq* iborasi qo‘llangan:

– *Quruqdan-quruq sho'ppayib shaharga tushib ketaveramizmi, ko'rgan-bilgan ne deydi, shuncha vaqt sanqib yurib, **ikki barmog'imni burnimga tiqib boramanmi**, o'zing o'lguncha nas bosgan pes deganimcha bor bola ekansan, sen bilan birlashganimdan buyon ishim o'ng'alganini bilmayman. Sen yo'liqmaganingda hov anov pulga to'qli olgan bo'lardim, haligacha to'qlim – qo'y, qo'yim – biya, biyam – tuya bo'lardi, – deb meni koyirdi [11, 92 b.].*

O'zbek tilidagi matnda muallif qo'ylar podasi o'rtasida turgan bolani tasvirlar ekan, u bolaning ko'zini *qo'y ko'zlar* frazeologik birligi orqali ta'riflaydi. *Qo'y ko'zlar* iborasi inson nigohidagi yumshoqlik va qo'rquvni ifodalaydi. Muallif bolaning tanishligini *ko'z* komponentli ikki ibora vositasida ko'rsatib bergan: *qo'y ko'zlar menga tanish; ko'zimga issiq-issiq ko'rinar edi*. YOzuvchi takrordan foydalanar ekan, u bolaning tanishligini o'quvchiga yorqin ko'rsatib bera olgan. Ana shu jihatdan o'zbek tili xalqona konnotatsiyalarga boyligi bilan ajralib turadi.

Bosh komponentli frazeologizmlarning soni o'zbek tilida talaygina. Ushbu frazeologizmning somatik tipiga kiruvchi iboralar turli semantik guruhlariga kiritilishi bilan “madaniy kodlar”da bitta guruh a'zolari ham bo'lishi mumkin. Frazeologizmlarda asosiy urg'u ularning “madaniy kodlar” orqali qaysi guruhlarda tasniflanishini, har qaysi tilda “madaniy kodlar”ga taalluqli frazeologizmlar rang-barangligi bilan ta'riflanishini hamda bir tildan ikkinchisiga uzatilganda, frazeologizmlarda “madaniy kodlar” o'zgarishi yoki umuman frazeologizm emas, leksik birlik sifatida talqin qilinishini ham ko'p uchraydigan holatlardan deyish mumkin. Quyidagi misolga etibor beraylik. *Nazarimda, qadam olishi, turqi-tarovati Nazirqulga o'xshaydi. -Yo'g'-e. **Qo'y og'zidan cho'p olmagan bola-ya. YAnghayotgandirsiz.*** (Said Ahmad, Hukm).

M.Abdurahimovning frazeologik lug'atidan quyidagi misollarni keltiramiz:

... *Sen yo kolxozing to'g'risida gazetalarda yozishsa, Zaynab o'qib, **boshi ko'kka etadi.*** (Oybek, Oltin vodiyan shabadalar).

Ma'lumki, har qaysi millat mentaliteti, dunyoqarashi, fikrlash tarzi va til xususiyatining o'zgachaligi bilan ajralib turadi. Badiiy matnda milliy o'ziga xoslikni, realiyalarni ko'rsata olish tildagi lingvokulturologik jihatlarni namoyon eta olish demakdir. Masalan, o'zbek tilidagi *bosh* leksemasi ishtirokidagi frazeologizmlarning “madaniy kod”ga taalluqli bo'lgan o'rinlari diqqatimizni tortadi.

-*Qizim, seni ne-ne ko'rgiliklar bilan, boshimni barkash, elkamni obkash qilib, voyaga etkazdim.* (“Guliston” jurnali).

*Direktorning yumushi shunchalik ko'p va serqirradi, har qanday ishchanman, degan odam ham **bosh qashishga** vaqt topolmay qoladi.* (“Mushtum”).

“Nima qilib men devonadan oy boshi so'rab yuribman”, degandek o'zidan koyinib elkasiga sochiq tashlagan Qoplonbek dushga chiqib ketdi. (SHuhrat, Jannat qidirganlar).

Og'ziga qatiq solmoq, og'zida qatiq ivitmoq frazeologik birliklari o'zbek tilida odamning kerakli joyda o'z fikrini ayta olmasligini, indamay, jim turishini ko'rsatadi. ***Og'izlaringga qatiq ivitdilaringmi, nega indamaysizlar? Raislaringni yiqitib, loyga belab tepaversalar ham nafaslaring chiqmaydi...*** (Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli).

Bilamizki, o'zbek tilida *kiymoq* fe'li o'z manosida kiyim bilan badanni yoki biror a'zosini yopmoq; kiyiladigan narsa (kiyim) ni tanaga, tanadagi a'zoga yopmoq, qo'ymoq, ilmoq manosini bildiradi. Masalan: *Ko'ylak kiymoq. Do'ppi kiymoq. Etik kiymoq. Palto kiymoq. Niqob kiymoq. Qo'lqop kiymoq.* - Qiz tugunini qo'ltiqlab, hovliga tushdi. Kavushini kiymadi. Yalang oyoq «ship-ship» yurib ketdi [16, 154 b.]. Ammo ushbu fe'l frazeologizm tarkibida kelgan o'rinlarda yaxlit

ko'chma manoni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan quyidagi frazeologik birliklarda hadya kiyimi olmoq mazmunmnm ifoda etadi. *Sharmsizdir yuzlari, Oshga to'ymas ko'zlari, To'yga borib, to'n kiymoq Hamon fikru so'zlari*. (Hamza). O'zbek xalqining necha asrlik qadriyatlariga ko'ra, hurmat manosida to'y marosimlarida to'n kiygaziladi. Ushbu jarayonlarda to'n kiyish ifodasi ortiga yashiringan pragmatik mano o'zbek sotsiumidagilar uchun pragmatik jihatdan malum. Shuningdek, o'zbek tilida to'n va kiymoq leksemalari bilan bog'liq *To'nini teskari kiymoq* frazeologizmi ham majud bo'lib, salbiy leksik, pragmatik diskurs vaziyatini ifodalash uchun qo'llaniladi. Masalan: *Otabekning alanglab javob berishi Zaynabning boyagi da'vosini chinga chiqargandek bo'lib, Kumush juda ham to'nini teskari kiydi*. (A. Qodiriy, O'tgan kunlar).

Frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlarini turli kontekstlarda ko'rib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, metaforik frazeologik birliklarning kommunikativ imkoniyatlari chegaralanmagan. Shu bilan birga, somatizmlarning kelib chiqishi, frazeologik birliklar pragmatik funksiyasini amalga oshirish faqat kommunikativ jarayon doirasida sodir bo'ladi. Frazeologik birliklarning kelib chiqishi va taraqqiyoti har bir tilning rivojlanish tarixi, lingvomadaniy va mintaqaviy-geografik sharoiti, qo'llaniladigan lisoniy vositalarning pragmatik ma'nosi bilan bog'liq bo'ladi [6, 3023 b.; 8, 147-151 b.; 17, 76 b.].

Lingvistik tadqiqotlar sohasida lingvopragmatika (pragmalingvis-tika) o'z obyekti sifatida til birliklari va ularni nutq/yozish va tinglash/o'qish bilan o'zaro aloqada bo'lgan kommunikativ makonda ishlatishning haqiqiy shartlari o'rtasidagi munosabatni belgilaydi. Shu bilan birga, muloqot holatining parametrlari va xususiyatlari, masalan, nutqning o'zaro ta'siri, o'rni va vaqti, kommunikantlarning maqsadlari, umidlari va boshqa hissiyotlari muhim ham ahamiyatga ega.

Tadqiqotimiz davomida shu narsa ayon bo'ldiki, bir qator frazeologizmlar o'zlarining ma'no-mazmuni bilan o'zbek xalqining turmush tarzini ifodalash maqsadida yaratilgan, ularning qo'llanish ko'lami shu qadar kengki, bu frazemalarni alohida shakllangan guruhlarga ajratishning sira iloji yo'q. Frazeologizmlarning ushbu xususiyatlari ularning til tizimida tutgan o'rnini yana bir bor ko'rsatib beradi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologizmlar masalasida pragmatik tahlil ham chetda qolmasligi zarur. Frazeologizm semantikasidagi pragmatik axborot nutq jarayonida yoki matnda muayyan kommunikativ vaziyatda amalga oshadi. Pragmatik axborotning amalga oshishi esa lingvistik va ekstralingvistik, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-madaniy, etimologik omillar orqali namoyon bo'ladi. Bu jarayonda adresat (muallif, so'zlovchi) pragmatik ma'noning, ya'ni munosabat bildiruvchining subyektiv baholovchisi vazifasini bajaradi. Subyektning obyektini baholashi tabiat, odamlar, narsa va hodisalarga nisbatan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlarda, olamni lisoniy idrok qilishdagi milliy, madaniy, etnografik, ijtimoiy mavqe, etnografik xususiyatlarni ifodalovchi lisoniy birliklarda o'z aksini topadi. Ular frazeologizm semantikasidagi milliy-madaniy konnotativ komponentlar deb nomlanib, til konseptosferasiga kiruvchi tushunchalar sifatida o'rganiladi [13, 86 b.].

Xulosa. Frazeologizmlar semantikasida ifodalanadigan pragmatik axborotda pragmatik maqsad va munosabat, konnotativ obrazlilik, milliy-madaniy o'ziga xosliklar boshqa lisoniy birliklarga qaraganda kuchliroq ifodalanadi. Pragmatik axborotdagi ma'noni anglashda frazeologizm tarkibidagi frazeologizmni qo'llashdan maqsad (funksiyalar); frazeologizm qo'llanilgan matnning pragmatik potentsiali (kitobxonga, tinglovchiga ta'siri), unda muallifning, so'zlovchining kommunikativ intensiyasi kabi makrostrategik vazifalar aniqlanadi. Bunday

axborot retseptorning kognitiv-mental ongida tahlil qilingach, frazeologizm haqiqiy ma'nosini idrok qilish jarayoni boshlanadi va tinglovchida (kitobxonda) axborotga nisbatan verbal pragmatik munosabatlar yuz beradi. Muallif (so'zlovchi)ning mental niyati turli variantlardagi mazmuni ifodalash mumkinligi tufayli uni anglashda frazeologizmning matndagi denotativ strukturasiga tayaniladi. Ma'lumki, frazeologizmlar tarkibidagi pragmatik axborot muloqot jarayoniga, matnga emotsionallik, ifodaviylik, intensivlik beradi, fikrni estetik ta'sirli ifodalashda turlicha assotsiatsiyalardan foydalanib, obrazli ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Frazeologizmlar tinglovchi yoki kitobxondan, tarjimondan nafaqat asliyat va tarjima tillarini yaxshi bilishni, balki asliyat tilidagi stilistik, madaniy-tarixiy faktlardan to'liq xabardor bo'lishlikni, ularni tarjima tilida tushunishda o'ziga xos usul va vositalardan to'g'ri foydalanishni ham talab qiladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Austin J.L. How to do things with words. – Oxford: At the Clarendon Press, 1962. – P. 85.
2. Carnap Rudolf. Der logische Syntax der Sprache. – Vien, 1934. – P.175;
3. Leech G.N. The Principles of Pragmatics. – N.-Y.: Longman, 1985. – P.150
4. Levinson S. Pragmatics. – Cambridge, 1983. –192 p.;
5. Morris Ch. Signs, language and behaviour / Ch. Morris. – N.Y.: Pretence Hall, 1946. – P.165.
6. Raupova L., Khursanov N., Khursanova L., Polatova S. Development of world modern linguistics and discourse interpretation in it. InE3S Web of Conferences 2023 (Vol. 413, p. 03023). EDP Sciences.
7. Soyibnazarov N. The role of pragmatics in translation. Jizzakh, – 2021. – P.8.
8. Xursanov I.N. Dramalarda metoforalarning sotsial xoslanishi (ingliz va o'zbek tillari misolida) // SCIENCEPROBLEMS.UZ-Ijtimoiy-gumanitar fanlarningdolzarb muammolari. No S/4 (4) – 2024. 147-151.
9. Абдулла Қаҳҳор. Синчалак. ЎЗССС давлат бадиий адабиёти нашрети. 1960. Бет -15.
10. Арутюнова Н.Д., Падучева Е.В. Вступительная статья // Новое в зарубежной лингвистике. Лингвистическая прагматика. Вып. XVI. – М., 1985. – С. 504.
11. Гафур Фулом. Шум бола. Қисса. – Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2018. – Б.92.
12. Грис. Х.П. (1957). "Значення", Філософський огляд, 66 (3). Передруковано як розділ 14 «Грис 1989». – С.213–223.
13. Коралова А.Л. Передача образности в переводе как прагматическая проблема // Прагматика языка и перевод. Сб. научн. тр. – М., – С. 68.
14. Луқмон Бўрихон. Хизр кўрган йигит. Қиссалар ва ҳикоялар. «Шарқ» Нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. Тошкент - 2007.
15. Мей Джейкоб Л. Прагмалінгвістика: теорія і практика Дослідження Расмуса Раска з прагматичної лінгвістики 1., 1979.
16. Ойбек, Танланган асарлар. Тошкент. 1957. Б-154.
17. Раҳимов Ғ. Таржима назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – Б.76.
18. Серль Дж., Вандервекен Д. Основные понятия исчисления речевых актов // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVIII. – М.: Прогресс, 1986. – С. 242–263.
19. Яхина А.М. К вопросу о прагматическом аспекте фразеологических единиц (на материале английского языка), 2013. – С. 221

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 7 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).